

TA'LIM TIZIMIDA IT BILIMLARINI CHUQURLASHTIRISH: DASTURIY TA'MINOT VA PLATFORMALAR

Ummatova Nilufar Baxodir qizi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti talabasi

Email: nilufarummatova6@gmail.com

Nabiyeva Ruxshona Alisher qizi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti talabasi

Email: Ruxshonanabiyeva9@gmail.com

Anotatsiya:

Zamonaviy dunyoda IT bilimlari har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada ta'lim tizimida IT bilimlarini chuqurlashtirishning ahamiyati va bu jarayonni amalga oshirishda dasturiy ta'minot va platformalarning o'rni haqida so'z boradi. Shuningdek bugungi kunda IT bilimlarini o'rganish uchun eng ommabop ta'lim platformalar haqida muhokama qilindi.

Kalit so'zlar: ta'lim tizimi, dasturiy ta'minot, texnologiya, innovatsion, masofaviy ta'lim, platforma.

Zamonaviy dunyoda IT bilimlari har qanday sohada muvaffaqiyatga erishish uchun muhim omil hisoblanadi. Ta'lim tizimida IT bilimlarini chuqurlashtirish talabalarni kelajakdagi kasb-hunarlariga tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Ta'lim tizimida IT bilimlarini chuqurlashtirish bugungi kunda muhim masalalardan biri bo'lib, bu jarayon dasturiy ta'minot va platformalar orqali amalga oshiriladi. IT bilimlarini chuqur egallash insonlarga juda ham keng imkoniyatlar olib keladi. Bulardan bir nechtasi quydagilar:

1. **Zamonaviy ish bozoriga moslashish:** Talabalar raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish orqali zamonaviy ish bozoriga moslashadi.
2. **Innovatsion fikrlashni rivojlantirish:** IT bilimlari talabalarni innovatsion yechimlar izlashga undaydi.



3. **Yangi imkoniyatlar yaratish:** Dasturlash va texnologiyalarni o'rganish orqali talabalar yangi startaplar va loyiha yaratishga qodir bo'lishadi.

4. **Masofaviy Ta'lim va Ishlash Imkoniyati:** IT bilimlari orqali talabalar masofaviy ta'lim olish va ishlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa geografik chegaralardan qat'i nazar, ko'proq imkoniyatlar ochadi.

5. **Kreativ Fikr Yuritish:** IT texnologiyalari bilan tanish bo'lish talabalarni kreativ fikrlash va yangi yondashuvlarni qo'llashga undaydi. Bu esa umumiy rivojlanish uchun muhimdir.

6. **Yuqori Maoshli Ishlar:** IT sohasidagi kasblar ko'pincha yuqori maosh bilan ajralib turadi. Shuning uchun IT bilimlariga ega bo'lish iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'ladi.

Shuningdek, IT bilimlari talabalarni global miqyosda aloqalar o'rnatish va dunyoning turli burchaklaridagi odamlar bilan hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi. IT bilimlarini chuqurlashtirish ta'lim tizimida nafaqat individual rivojlanishga, balki mamlakat iqtisodiyotining ham rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bu imkoniyatlardan foydalangan holda yuqori natijalarni qayd etish mumkin. Bugungi kunda IT yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari hamda xususiy metodikalarni ishlab chiqish, ta'lim tizimida bilim, ko'nikma va malakalarning to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash, mazkur yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarga asoslangan ma'ruza, munozara, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini loyihalash va pedagogik faoliyatda qo'llash, bu yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda rivojlangan mamlakatlardagi ilg'or tajribalarni o'rganish kerakligini davr taqozo etmoqda.

Axborot texnologiyalarni bugungi kundagi yana bir katta o'rni Dasturiy injinering. Bu ham albatta rivojlanmoqda. Mamlakatimizda dasturlashni o'rgatish uchun alohida lohiya bor. Bu "Bir Million O'zbek Dasturchilari" (<https://uzbekcoders.uz>) loyihasi. Bu loyiha mutlaqo tekin. Ro'yhatdan o'tgandan so'ng o'zingiz qiziqqan dasturlash sohasini tanlab va unda o'qishingiz mumkin. Masofasviy shaklda, uyda o'tirgan holatda o'rganishingiz mumkin.[1]

IT bilimlarini chuqurlashtirish uchun dasturiy ta'minot va platformalar juda muhim ahamiyatga ega. Bu, talabalar va mutaxassislar uchun ko'rsatmalar, darsliklar, maslahatlar va boshqa resurslarga kirishni ta'minlaydi. Hozirgi kunda IT bilimlarini



o'rganishda yordam beradigan eng ommlashgan dasturiy ta'minot va platformalar quydagilar:

1. Udemy: Udemy dunyoning eng katta onlayn ta'lim platformalaridan biridir. Bu platformada bir necha mingtaga yaqin kurslar mavjud va har qanday mavzuda o'zlashtirilgan ta'limlarni topish mumkin.

2. Coursera: Coursera, eng yaxshi universitetlar va kompaniyalar tomonidan tuzilgan onlayn kurslarni taklif etadi. Bu platforma orqali xalqaro sertifikatlar olish mumkin.

3. edX: edX, dunyo miqyosidagi universitetlar va akademiyalar bilan hamkorlik qilgan onlayn ta'lim platformasi. Bu yerda bepul va pullik kurslar mavjud.

4. Khan Academy: Khan Academy, matematika, fanlar, dasturlash va boshqa ko'plab mavzularda bepul ta'lim resurslarini taklif etadi. Bu platforma orqali o'quvchilar o'zlarini chuqurlashtirishlari mumkin.

5. Codecademy: Agar dasturlashni o'rganmoqchi bo'lsangiz, Codecademy siz uchun ideal platforma bo'ladi. Bu saytda interaktiv darslar orqali dasturlashni o'rganishingiz mumkin.

Bu platformalar orqali IT bilimlarini chuqurlashtirish uchun bir necha imkoniyatlar mavjud. Har biri o'zining xususiyatlari va foydalanuvchilarga taklif etiladigan imkoniyatlari bor.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ta'lim tizimida IT bilimlarini chuqurlashtirish uchun keng ko'lamdagi dasturiy ta'minot va platformalar mavjud bo'lib, ular zamonaviy IT ko'nikmalarini o'rgatishda samarali vositalar hisoblanadi. Ushbu dasturlar va platformalardan foydalanish talabalarga texnologik savodxonlikni oshirish, muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish va yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Ta'lim jarayoniga IT vositalarini integratsiya qilish orqali talabalarning bilim darajasini va raqobatbardoshligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. file:///C:/Users/MARHABA/Downloads/fanlarni-o-qitishda-ta-lim-texnologiyalarining-o-rni.pdf
2. Solidjonov, D. Z. o'g'li. (2021). The impact of the development of internet technologies on education at pandemic time in uzbekistan. СТУДЕНТ ГОДА



- 2021: сборник статей XVII Международного научноисследовательского конкурса. – Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». – 2021. –154 с.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-ta-lim-tizimidagi-yangichayondashuvllarning-muhim-afzalliklari>
 4. <https://in-academy.uz/index.php/yota/article/download/14433/10043>
 5. <https://www.creatogether.app/post/10-best-online-learning-platforms-2023>.

